YANGI O‘ZBEKISTONDA EL AZIZ, INSON QADRI AZIZ!

YANGI BEKOBOD

Toshkent viloyati Bekobod tumani ijtimoiy-siyosiy gazetasi

Gazeta 1931-yildan chiqa boshlagan

2026-yil 17-mart, № 10 (8028)

BIZ BUYUK TARIX, BUYUK DAVLAT, BUYUK MADANIYAT YARATGAN XALQMIZ.

Shavkat MIRZIYOYEV



NAVRO‘ZNI ULUG‘LASH – INSONNI ULUG‘LASHDIR!

Navro‘z – xalqimizning eng qadimiy va qadrli bayramlaridan biri bo‘lib, u tabiatning yangilanishi, bahorning kirib kelishi va inson qalbida ezgulik, mehr-oqibat tuyg‘ularining kuchayishini ifodalaydi. Asrlar davomida avloddan avlodga o‘tib kelayotgan ushbu bayram xalqimizning boy milliy qadriyatlari, urf-odatlari va an’analarini o‘zida mujassam etib kelmoqda.

Navro‘z ayyomi yaqinlashishi bilan yurtimizda katta tayyorgarlik ishlari boshlanadi. Mahallalarda hasharlar uyushtirilib, ko‘chalar, hovlilar va jamoat joylari obodonlashtiriladi. Bu jarayon nafaqat tozalik va tartibni ta’minlaydi, balki odamlar o‘rtasida hamjihatlik, o‘zaro hurmat va mehr-oqibat tuyg‘ularini yanada mustahkamlaydi.

Navro‘z bayrami ko‘plab qadimiy urf-odat va an’analar bilan ham boydir. Bayram arafasida odamlar hovli-joylarini tartibga keltirib, daraxt va gullar ekadi, atrof-muhitni obod qilishga alohida e’tibor qaratadi. Shuningdek, yoshi ulug‘ insonlar, qarindosh-urug‘lar va qo‘ni-qo‘shnilar holidan xabar olish, bemorlar va ehtiyojmandlarni yo‘qlash ham Navro‘zning ezgu odatlaridan sanaladi. Bu an’analar xalqimizga xos mehr-oqibat, bag‘rikenglik va insonparvarlik fazilatlarini yana bir bor namoyon etadi.

Bayram kunlari turli sayllar va madaniy tadbirlar tashkil etilib, xalqimizning boy folklor merosi namoyish etiladi. Folklor jamoalarining kuy-qo‘shiqlari, milliy raqslar va sahna chiqishlari Navro‘z sayllariga o‘zgacha fayz bag‘ishlaydi. Dorbozlarning mahoratli chiqishlari esa tomoshabinlarda katta qiziqish uyg‘otadi.

Navro‘z bayramining yana bir o‘ziga xos jihati – milliy taomlar tayyorlanishidir. Ayniqsa, sumalak, halim, ko‘k somsa kabi bahoriy taomlar dasturxonlarga fayz bag‘ishlaydi. Bu taomlar nafaqat mazasi, balki o‘zida mujassam etgan qadimiy an’analari bilan ham qadrlidir.

Bayram sayllarida milliy o‘yinlar ham alohida o‘rin tutadi. Kurash, arqon tortish kabi sport o‘yinlari yosh-u qari barchani bir maydonga jamlab, kuch va epchillikni sinovdan o‘tkazadi. Bunday musobaqalar tomoshabinlarga ko‘tarinki kayfiyat bag‘ishlab, milliy sport an’analarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Navro‘z – nafaqat bayram, balki do‘stlik va birdamlik timsolidir. Bu kunda yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari bir dasturxon atrofida jam bo‘lib, millatlararo totuvlik va hamjihatlik muhitini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytganda, Navro‘z bayrami xalqimizning milliy qadriyatlari, boy an’analari va madaniy merosini o‘zida aks ettirgan ulug‘ ayyomdir. Ushbu bayram insonlarni ezgulikka, birlikka va kelajakka umid bilan qarashga undaydi. Navro‘z shukuhi yurtimizga tinchlik, farovonlik va baraka olib kelaversin!

“YURT OBODLIGI, AVVALO, MAHALLADAN BOSHLANADI”

Bunyodkorlik ruhi

13–14-mart kunlari yurtimiz bo‘ylab “Yurt obodligi, avvalo, mahalladan boshlanadi” shiori ostida umumxalq xayriya hashari o‘tkazildi. Ushbu ezgu tashabbus doirasida “Obod xonadon – obod ko‘cha – obod mahalla” tamoyili asosida mahallalarda keng ko‘lamli obodonlashtirish ishlari amalga oshirildi.

Hashar davomida aholi xonadonlari tartibga keltirildi, ko‘chalardagi ariq va zovurlar tozalandi. Natijada hududlar yanada fayzli, ozoda va ko‘rkam ko‘rinishga ega bo‘ldi. Aholining hamjihatlikda amalga oshirgan ishlari mahallalarning yanada obod bo‘lishiga xizmat qildi.

Shuningdek, “Yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida daraxt ko‘chatlari ekilib, mavjud daraxtlarga shakl berildi hamda yashil hududlar kengaytirildi. Qabristonlarda ham tozalash va tartibga keltirish ishlari olib borildi.

Bekobod tumani hududida o‘tkazilgan hashar tadbirlarida jami 65 980 nafar fuqaro faol ishtirok etdi. Ularning 43 331 nafari yoshlar ekani, ayniqsa, e’tiborga molik bo‘lib, yoshlarning yurt obodligi yo‘lidagi tashabbuskorligi va faolligini yana bir bor namoyon etdi.

Mazkur xayrli kun yana bir quvonchli voqea bilan ham yodda qoldi. Shu kuni “O‘zbekiston” mahalla fuqarolar yig‘ini binosining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi.



Zamonaviy sharoitlarga ega bo‘lgan ushbu bino mahalla ahliga yanada qulay xizmat ko‘rsatishi, shubhasiz.

Bunday ezgu tashabbuslar mahallalarimizning yanada obod bo‘lishiga xizmat qilish bilan birga, yurtimizda inson qadri eng oliy qadriyat sifatida e’zozlanayotganini ham namoyon etadi. Chunki obod mahalla — bu, avvalo, inson manfaatlari, uning farovon va baxtli hayoti uchun yaratilgan muhitdir.

Sarvinoz SHERALIYEVA

EZGULIK YO‘LI

RAMAZON OYI — OYLARNING SULTONI

Ayni kunlarda yurtimizda muborak Ramazon oyi davom etmoqda. Bu oyning boshqa oylardan ulug‘ va fazilatli bo‘lishining sababi — aynan shu oyda Allohning kalomi bo‘lgan Qur’on nozil qilinganidir. Ramazon oyidan boshlab insoniyatni ezgulikka, to‘g‘ri yo‘lga chorlovchi islom dini keng yoyila boshlagan.

Islom dinidagi besh farzdan biri — musulmonlarning Ramazon oyida ro‘za tutishidir. Bugungi kunda har bir musulmon ushbu ulug‘ amallardan biri bo‘lgan ro‘zani ado etishga intiladi. Ro‘za tutish katta ma’naviy ahamiyatga ega. Ro‘za nafaqat kunduz kuni yeb-ichishdan tiyilish, balki insonni turli salbiy illatlardan — g‘iybat, yolg‘on so‘zlash, adovat kabi yomonliklardan ham tiyilishga undaydi.

Ro‘zador inson ochlik hissini tuyib, Alloh ato etgan ne’matlarning qadriga yanada yetadi. Shuningdek, qorni och insonlarning ahvolini his etib, ularga nisbatan mehr-shafqat tuyg‘usi kuchayadi.

Ro‘zadorning duolari, ayniqsa, og‘iz ochish vaqtiga yaqin daqiqalarda qilgan iltijolari alohida fazilatga ega. Inson bu paytda Yaratgandan yurtimizga tinchlik, oilalarimizga farovonlik, xalqimiz va yaqinlarimizga sog‘lik-omonlik tilab duo qiladi. Bunday samimiy duolarning ijobat bo‘lishiga ishonch katta.



Ramazon oyida yurtimiz bo‘ylab masjidlarda Qur’on xatm qilinadi, insonlarni hidoyatga, ezgulik va to‘g‘ri yo‘lga chorlovchi ma’ruzalar o‘qiladi. Bu oyda qilingan har bir ezgu amalning savobi yanada ziyoda bo‘ladi. Insonning boshqalarga yordam berishi har doim savob bo‘lsa, Ramazon oyida bunday amallarning savobi yanada ortadi.

Shu bois oilamizdagi ro‘zadorlar uchun iftorlik dasturxonlarini tayyorlab, ularga mehr va e’tibor ko‘rsatish ham yaxshi amallardan hisoblanadi. At-Tabariy rivoyatlarida aytilishicha, har bir xayrli amal uchun o‘n barobaridan yetti yuz barobarigacha savob beriladi.

Har bir musulmon ikki dunyo saodatiga erishishni, jannat ahlidan bo‘lishni orzu qiladi. Bunday ulug‘ maqsadga yetishish uchun esa inson mehnat qilib, to‘g‘ri va halol yashashi lozim.

Atrofimizdagi bemorlar, yoshi ulug‘ keksalar yoki turli sabablarga ko‘ra qiynalayotgan insonlarga imkon qadar yordam berish — nafaqat savob, balki insoniy burch hamdir. Shunday ekan, kundalik tashvishlarimiz orasida mahallamizdagi keksalardan hol so‘rashga, bemorlar va muhtojlarga ko‘mak berishga vaqt topaylik. Ularning duolarini olish esa inson uchun eng katta baxtlardan biridir.

Zero, insondan bu dunyoda qoladigan eng ulug‘ meros — mehr-muhabbat va yaxshi amallardir.

Mahbuba SHAMSUTDINOVA

RAMAZON OYIDA SAXOVAT VA MEHR ULASHILDI

Xalqimiz uchun ezgulik, birdamlik, oliyjanoblik va shukronalik timsoli bo‘lgan muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini qo‘llab-quvvatlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Muborak Ramazon oyida ehtiyojmand aholini davlat tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq hududlarda manzilli yordam ko‘rsatish ishlari amalga oshirilmoqda.

Mazkur qaror asosida Bekobod tumanida ham ijtimoiy himoyaga muhtoj fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amaliy ishlar olib borildi. Jumladan, Ijtimoiy reestrning “davlat ta’minotidagi oila” toifasiga kiruvchi 1046 ta oilaga, o‘zgalar parvarishiga muhtoj bo‘lgan yolg‘iz yashovchi hamda yolg‘iz keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar reestrida ro‘yxatda turgan 36 nafar fuqaroga hamda yetim va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalar yashayotgan 20 ta oilaga 1 million so‘mdan bir martalik moddiy yordam ko‘rsatildi.

Shuningdek, Ijtimoiy reestrning “kambag‘al oila” toifasiga kiruvchi 2767 ta oilaga hamda “mahalla yettiligi” tomonidan shakllantirilgan qo‘shimcha ro‘yxatdagi ehtiyojmand 205 ta oilaga 500 ming so‘mdan bir martalik moddiy yordam ajratildi.

Bundan tashqari, tuman mahallalarida Ramazon oyining fayzli kunlarida iftorlik dasturxonlari tashkil etilib, kam ta’minlangan oilalar hamda ehtiyojmand fuqarolarga oziq-ovqat mahsulotlari tarqatildi. Bunday xayrli ishlar Ramazon oyining mehr-oqibat va saxovat ruhini yanada mustahkamlab, jamiyatimizda o‘zaro birdamlik va hamjihatlik muhitini kuchaytirmoqda.

Vohid XUDAYBERDIYEV,
Bekobod tumani “Inson” ijtimoiy xizmatlar markazi direktori

Ramazon ruboiylari

SABR

Nafsim tomirlarin bittalab chopdim,
Xolis niyat ila og‘zimni yopdim.
Ming dard-u hasratning mutlaq davosi,
Sabr-u qanoatni ro‘zadan topdim.

SAVOL

Bir juft non berdingmi biror faqirga?
Joy topa oldingmi qalbdan zikrga?
Kun kelib mahallang kuzatib qo‘ysa,
Nima deb borasan Munkar, Nakirga?

SADAQA

Hargiz ehson ila savobga shoshgin,
Zakot beruvchiga kelmasin rashking.
Fitr sadaqasin shunchaki berma –
Sen unga mehringni qo‘shib ulashgin.

SO‘ROQ

Biringiz mehrdan, sabrdan judo,
Biringiz chorlasa, bermaysiz sado.
So‘ylangiz, ey loqayd, qalbi quluflar –
Kaltingiz qayga yashirgan Xudo.

Nurali JALIL

AHOLI MUROJAATLARI BILAN ISHLASH TIZIMI YANGI BOSQICHGA OLIB CHIQILADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini takomillashtirish, Xalq qabulxonalari faoliyatini yangi bosqichga olib chiqish va jamoatchilik fikrini chuqur tahlil qilish masalalari yuzasidan videoselektor yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi.

Ta’kidlanganidek, yurtimiz nufusi 38 milliondan oshdi, so‘nggi to‘qqiz yilda aholi daromadi ikki karra ko‘paydi. Xalqimiz og‘irini yengil qilish, uni o‘ylantirayotgan masalalarga yechim topish bo‘yicha vazir va hokimlar mahalla darajasida ishlaydigan tizim yaratildi. Joriy yilda ham mahallalarda infratuzilma va aholi turmushini yaxshilashga 56 trillion so‘m ajratilmoqda.

Davlatimiz rahbari shuncha imkoniyat bo‘la turib, aholi ko‘tarayotgan masalalarga hamma joyda ham o‘z vaqtida yechim topib berilmayotganini ko‘rsatib o‘tdi.

– Bundan to‘qqiz yil oldin Xalq qabulxonalari tashkil qilinganda bitta maqsad qo‘yilgan edi: davlat idoralarini xalqqa yaqinlashtirish. To‘g‘ri, Xalq qabulxonalari o‘z vaqtida samarali ishladi. Lekin bu idorani ham odamlarning bugungi talabiga mos holda o‘zgartiradigan vaqt keldi, – dedi Prezidentimiz.

Yig‘ilishda bundan buyon “Har bir inson va xonadon muammosini bilib, vaqtida ko‘mak berishim kerak” degan shior barcha darajalardagi rahbarlar faoliyatida bosh qoida bo‘lishi shartligi qayd etildi.

Yig‘ilishda aholidan eng ko‘p murojaatlar yuborilayotgan sohalar va ularga mas’ul idoralar faoliyati, shu jumladan ichki ishlar, majburiy ijro, sog‘liqni saqlash, bandlik, ijtimoiy himoya, energetika, infratuzilma va boshqa masalalar muhokama qilindi.

Masalan, o‘tgan yili aliment bilan bog‘liq 70 mingta murojaat kelib tushgan. Majburiy ijro byurosi ariza tushganda undirish chorasini ko‘rayotgan bo‘lsa-da, aliment to‘lovchining rasmiy daromadi bo‘lmagani uchun murojaatlarning 30 foizi hal bo‘lmay qolmoqda.

Bu borada aliment to‘lovchilarning qanchasi kasbga ega bo‘la turib ishsiz yurgani, qanchasini o‘qitish kerakligini tahlil qilishmayotgani, shu asosda bandlik bo‘limlari va “mahalla yettiligi” bilan yaqin hamkorlikda ish tashkil qilish muhim ekani qayd etildi.

Prezidentimiz murojaatlar bilan ishlash tizimini o‘zgartirish vaqti kelganini ta’kidlab, hokimliklar, vazirlik va idoralarga faqat ko‘tarilgan masalani hal qilish bilan cheklanib qolmasdan, muammoning kelib chiqish sabablarini chuqur o‘rganish, murojaatlarga olib kelayotgan omillarni aniqlab, ularni kamaytirish bilan tizimli ravishda shug‘ullanishga topshiriq berdi.



Jarayon

Shu bois, Xalq qabulxonalari faqat ariza qabul qiluvchi idora emas, balki soha va joylardagi muammolarga ularga tegishli mas’ul idoralarning e’tiborini tortadigan, ular bilan birgalikda tahlil va yechim taklif qiladigan markazga aylantirilishi belgilandi.

Prezidentimiz yangi tizim qanday ishlashini Qarshi shahri misolida tushuntirib berdi. Aliment to‘lovchilarning bandligini ta’minlash, oyliklar kechiktirib to‘lanishining oldini olish, boshqaruv servis kompaniyalari faoliyati, davlat idoralari xodimlari ustidan shikoyatlar, uy-joy bilan ta’minlash, nafaqa tayinlash kabi masalalarda manzilli ishlash yo‘llari va buning uchun mas’ullar belgilab berildi.

Har bir ariza va shikoyatni chuqur tahlil qilib, mas’ullar kesimida taqsimlab, birinchi yarim yillikda Qarshi shahrini murojaatlar bilan ishlash bo‘yicha namunaviy hududga aylantirish topshirildi. Bu jarayonda viloyat hokimi, uning o‘rinbosarlari va hududdagi tashkilotlar rahbarlari unga yaqindan ko‘maklashishi belgilandi.

Umuman, barcha hududlar va 208 ta tuman-shahar hokimlariga Qarshi shahri misolida ko‘rsatilgan tizimni samarali yo‘lga qo‘yib, odamlarning og‘irini yengil qilish vazifasi topshirildi. Bu boradagi ish rejalari har oy mahalliy Xalq deputatlari kengashlarida tasdiqlanib, aholiga yetkazib boriladi.

Prezidentimiz yana bir muhim masalaga to‘xtalib o‘tdi. Davlat siyosati va islohotlarning asosiy yo‘nalishlarini belgilash, vazirlik va idoralarda to‘g‘ri qarorlar qabul qilinishida, umuman, aholi kayfiyati va uni o‘ylantirayotgan masalalarni bilishda murojaatlar bilan bir qatorda sotsiologik tadqiqotlar natijalari ham muhim manba ekani ta’kidlandi.

Shu bois, bunday tadqiqotlarning ko‘lami va sifatini oshirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Endilikda bir martalik ijtimoiy so‘rovlar bilan cheklanilmay, qayerda ishonch ortayotgani, qayerda susayayotgani, qaysi qarorlar adolatli, qaysilari odamlarga manfaat keltirmayotgani bo‘yicha doimiy monitoring va tahlillar o‘tkazilishi belgilandi.

Sarvinoz SHERALIYEVA tayyorladi.

Jamiyat va yoshlar

“RAHBAR VA YOSHLAR” OCHIQ MULOQOTI BO‘LIB O‘TDI



2026-yil 24-fevral kuni Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan yoshlar tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga doir o‘tkazilgan uchrashuvda haftaning har payshanba kuni yoshlar muammolarini o‘rganish va ularni qo‘llab-quvvatlash kuni etib belgilangan edi. Shu asosda Bekobod tumani hokimligi tomonidan aniq chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqildi.

Davlat rahbari tashabbusi bilan endilikda har payshanba kuni “Rahbar va yoshlar” uchrashuvlarini tashkil etish yo‘lga qo‘yildi. Bu esa yoshlarning fikrini eshitish, ularning muammo va tashabbuslariga bevosita e’tibor qaratish uchun muhim maydon bo‘lib xizmat qilmoqda.

Shu kabi uchrashuvlardan biri Qoraqo‘yli mahallasida bo‘lib o‘tdi. Unda tuman hokimi, tuman prokurori, Ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i o‘rinbosari hamda yoshlar ishtirok etib, ochiq va samimiy muloqot olib bordilar.

Uchrashuv davomida yoshlar o‘z g‘oyalari, takliflari hamda ularni qiynayotgan masalalar haqida erkin fikr bildirdilar. Rahbarlar esa har bir murojaatni diqqat bilan tinglab, muammolarni hal etish yuzasidan tegishli mas’ullarga aniq vazifalar yukladilar.

Samimiy ruhda o‘tgan bu uchrashuv yoshlar uchun nafaqat muammolarini bayon etish, balki o‘z tashabbuslari bilan jamiyat hayotida faol ishtirok etish imkoniyatini ham yaratdi.

Yoshlar ovozi eshitilgan jamiyatda kelajak yanada yorqin bo‘ladi!

Akrom MAMADALIYEV

Deputat hisoboti

IJTIMOIY HAYOTNING YANGI BOSQICHI

“Achamayli” mahalla fuqarolar yig‘ini 2025-yil davomida aholi farovonligini ta’minlash, infratuzilmani mustahkamlash va ijtimoiy hayotni rivojlantirish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlarni amalga oshirdi.

Kambag‘allikni qisqartirish bo‘yicha, mahallada shu yil davomida 49 ta oila kambag‘allikdan chiqarildi, yana 14 ta oila bilan esa kambag‘allikdan chiqarish ishlari olib borilmoqda.

Ishsizlik darajasini kamaytirish bo‘yicha, yil boshida mahallada aniqlangan 79 nafar band bo‘lmagan aholi ishga joylashtirildi. Ularning 10 nafari kasb-hunarga o‘qitildi, 48 nafari imtiyozli kreditlar orqali o‘z tadbirkorlik faoliyatini boshladi, 21 nafari esa o‘zini-o‘zi band qildi.

Elektr energiyasini uzluksiz yetkazib berish bo‘yicha 16 ta transformator punktlari va 2 km havo elektr tarmoqlari mukammal ta’mirlandi, 800 m havo elektr tarmoqlari 2 ta transformator punktlari orqali joriy ta’mirlandi. Bundan tashqari, 2 ta transformator punktlarini yangilash va rekonstruksiya qilish, 1,8 km havo elektr tarmoqlarini yangilash va rekonstruksiya qilish ishlari rejalashtirilib, 100 foiz amalga oshirildi.

Hududda jinoyatchilik ko‘rsatkichi bo‘yicha, yil boshida “Achamayli” mahalla fuqarolar yig‘ini “sariq” toifadan yil yakuniga kelib “yashil” toifaga chiqdi. Mahallada sodir etilgan jinoyatlar soni yil davomida 2 tani tashkil etib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 1 taga kamaydi. Jinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-yanvardagi PQ-1 sonli qarori asosida bir qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, ko‘chalarga 21 ta yoritish chiroqlari qo‘yildi, 2 ta kuzatuv kamerasi o‘rnatildi. Hududdagi 48-umumta’lim maktabida jinoyatchilikni oldini olishga qaratilgan reydlar, tadbirlar va uchrashuvlar o‘tkazildi. Kiberjinoyatchilikni oldini olish bo‘yicha aholi orasida targ‘ibot flayerlari tarqatildi, mahalla Telegram kanallari orqali ogohlantirish chiqishlari olib borildi.

Mahalladagi bolalar maydonchasi va workout maydonlaridan aholi samarali foydalanmoqda. Obodonlashtirish bo‘yicha, “Yashil makon” dasturi doirasida 2200 dona ko‘chat ekish rejalashtirilgan bo‘lsa, yil davomida bahorgi va kuzgi mavsumda 2500 dan ortiq mevali va manzarali daraxtlar ekildi. Tez-tez hasharlar o‘tkazildi, Achamayli qabristonida 6 marta katta hashar tashkil qilindi.

Aholining asosiy va qo‘shimcha daromadi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va sotishdan iborat. Shuning uchun takroriy ekinlar ekish va tomorqalardan samarali foydalanish maqsadida ularga muntazam oqar suv yetkazishga mo‘ljallangan Do‘stlik kanalidan suv yetkazuvchi ariq to‘liq tozalandi. Bundan tashqari, suvni me’yor darajasidan ortiq sarf qilayotgan fermer va klaster xo‘jaliklari maydoniga suv o‘tkazgichlar o‘rnatilishi amalga oshirilmoqda.

“Yashil makon” dasturi doirasida 2026-yilda hududni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlari davomida 500 tup manzarali va 200 tup mevali daraxt nihollari ekilishi rejalashtirilgan. Aholi salomatligini mustahkamlash maqsadida 3 km salomatlik yo‘lagi tashkil etilib, foydalanishga topshiriladi.

Achamayli mahallasida amalga oshirilgan barcha ishlar aholi farovonligini ta’minlash, infratuzilmani mustahkamlash va mahallani yashil, sog‘lom va obod qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Inom EGAMBERDIYEV,
Xalq deputatlari Bekobod tumani Kengashi deputati

Kun mavzusi

ZO‘RAVONLIKKA QARSHI YANGI CHORALAR

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 3-martdagi PF-33-sonli “Ayollar va bolalar huquqlarining himoyasini kuchaytirish hamda ularga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy-huquqiy choralar to‘g‘risida”gi Farmoni mamlakatimizda bu sohada tizimli va samarali ishlarni yo‘lga qo‘yishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksining 10-moddasi 2-qismida belgilanishicha, oila a’zolarining o‘z huquqlarini amalga oshirishlari hamda o‘z majburiyatlarini bajarishlari oilaning boshqa a’zolari va boshqa shaxslarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini buzmasligi shart. Amalda esa Jinoyat kodeksning 126^1-moddasida xotini yoki eri, sobiq xotini yoki sobiq eriga, bir oila asosida birga yashayotgan shaxsga yoki umumiy farzandga ega bo‘lgan shaxsga nisbatan mulk, ta’lim olish, sog‘liqni saqlash va mehnat huquqlarini amalga oshirishga to‘sqinlik qilish, mol-mulkka va shaxsiy buyumlarga qasddan shikast yetkazish, shuningdek, ushbu shaxslarning salomatligining yomonlashuviga olib keladigan tarzda ularning sha’ni va qadr-qimmatini tahqirlash, qo‘rqitish, yaqin qarindoshlaridan ajratib qo‘yish kabi harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa, jinoiy javobgarlik belgilangan.

Bugungi kunda bir oilada bir ro‘zg‘or asosida birga yashayotgan shaxslar o‘rtasida sodir etilayotgan oila-maishiy zo‘ravonlik jinoyatlari yil sayin oshib bormoqda. Shu kabi jinoyatlar sodir etgan shaxslarga nisbatan qonun tomonidan belgilangan jazolar qo‘llanilmoqda, ammo bunday holatlar Respublikaning barcha hududlarida uchramoqda.

Farmon orqali ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli ta’minlash, ularni har qanday tazyiq va zo‘ravonliklardan himoya qilish, jamiyatda bunday



holatlarga nisbatan murasasiz muhitni shakllantirish, davlat organlari va tashkilotlarining ushbu yo‘nalishdagi faoliyatini muvofiqlashtirilgan holda samarali yo‘lga qo‘yish maqsad qilingan.

Farmonning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat. Birinchidan, nikoh yoshiga yetmagan shaxslar bilan erkin bo‘lmagan nikoh (erta nikoh) holatlarining oldini olish va ota-onaning voyaga yetmagan farzandlari uchun mas’uliyatini oshirish. Ikkinchidan, moliyaviy mustaqillikka erishgan va oila qurishga tayyor yoshlarni nikoh qurishga rag‘batlantirish. Uchinchidan, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik holatlarini oldini olish tizimini takomillashtirish va bunday holatlarga uchragan shaxslarni qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish. To‘rtinchidan, oila va xotin-qizlar masalalarida nikohlanuvchilarni “maishiy zo‘ravonliksiz baxtli oilaviy hayotga tayyorlash” kurslarini bepul o‘qitish darajasini 2026-yilga 50 foiz, 2027-yilga 60 foiz va 2030-yilga 100 foizga yetkazish hamda kurslar sifatini oshirish.

Farmonga ko‘ra, 2026-yil 1-apreldan boshlab himoya orderi berilgan jabrlanuvchi ayollar va qizlarning aloqa vositalariga, jumladan telefon, planshet va boshqa qurilmalarga, Ijtimoiy himoya Milliy agentligi tomonidan tazyiq va zo‘ravonlik holatlari to‘g‘risida tezkor xabar berish imkonini beruvchi (“SOS” chaqiruv) “my.ihma.uz” mobil ilovasi ularning roziligi bilan o‘rnatiladi.

Bosh prokuratura, Oliy sud, Adliya vazirligi, Ichki ishlar vazirligi va Ijtimoiy himoya Milliy agentligining takliflariga ko‘ra, 2026-yil 1-noyabrdan boshlab, Jinoyat kodeksining 118-, 119-, 121-, 128-, 128^1- va 129-moddalarida nazarda tutilgan jinoyatlar bo‘yicha tergov va dastlabki tekshiruv faqat prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu bilan birga, voyaga yetmagan shaxsga nisbatan sodir etilgan shahvoniy shilqimlik bo‘yicha ma’muriy huquqbuzarlik ishlarini jinoyat alomatlari yo‘qligi to‘g‘risida prokuror qarori bilan sudga yuborish belgilanadi.

Keng jamoatchilik, ekspert va faollarning takliflari qabul qilib, 118- va 119-moddalar bo‘yicha jinoyatlarni voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan sodir etganlik uchun shaxslar manzil-koloniya mahkumlari sifatida kiritilmaydi. Shu bilan birga, mazkur jinoyatlar uchun jazoni o‘tayotgan mahkumlarni psixologik tuzatish dasturidan o‘tkazmasdan saqlash sharoitlarini yengillashtirish amaliyotiga chek qo‘yiladi.

2027-yil 1-yanvardan boshlab, ayollar va bolalarga nisbatan tazyiq va zo‘ravonlik bilan bog‘liq jinoyatlar maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan tergovchilar va sudyalar tomonidan tergov qilinadi va ko‘rib chiqiladi.

Xulosa qilib aytganda, PF-33-sonli Farmon yoshlar o‘rtasida erta turmush qurishning oldini olish, oilalarni mustahkamlash, ayollar va bolalar huquqlarini ishonchli himoya qilish, jamiyatda zo‘ravonlikka nisbatan murasasiz muhit yaratish va jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazoni ta’minlash orqali kelgusida bunday jinoyatlarning oldini olishga qaratilgan.

Ikromjon TURSUNOV,
Jinoyat ishlari bo‘yicha Bekobod tuman sudi raisi

Mahalla hayotidan

MAHALLADA MEHNAT VA TADBIRKORLIK RIVOJI

O‘zbek mumtoz shoiri Turdi Farog‘iyning “Tenglik qiling, yuz urug‘ bir bo‘ling” mazmunidagi mashhur misralari xalqimizning birlik va hamjihatlik ruhini ifodalaydi. Bu hikmatli so‘zlar go‘yo Bekobod tumanidagi Saryuz mahallasi tarixiga ham mos keladi. Rivoyatlarga ko‘ra, qadimda ushbu hududda yuz urug‘ga mansub aholi vakillari istiqomat qilgan. Shu bois mahalla nomi va tarixi ham ana shu qadimiy an’ana bilan bog‘lanadi.

Bugungi kunda Saryuz mahallasi asosan dehqonchilikka ixtisoslashgan hududlardan biri hisoblanadi. Mahallada jami 798 ta oila istiqomat qiladi. Aholi qo‘lida 153 gektar tomorqa yer maydoni mavjud bo‘lib, uning 100 gektariga kartoshka, qolgan qismiga esa yeryong‘oq ekiladi. Mahallaning tuprog‘i qumloq bo‘lgani sababli ushbu ekinlar, ayniqsa, serhosil bo‘ladi. Bundan tashqari, hududning iqlimi ham dehqonchilik uchun nihoyatda qulay. Saryuz mahallasi tuman markaziga nisbatan 10–15 kun oldinroq iliqlashadi. Bu esa ekinlarning barvaqt yetilishiga imkon yaratadi.



Mahallada tadbirkorlik faoliyati ham izchil rivojlanib bormoqda. Ana shunday tashabbuskor insonlardan biri — Elmurod G‘oyibnazarov. U rahbarlik qilayotgan “Bekobod 7 xazinasi” MCHJ tasarrufida 13 gektardan ortiq yer maydoni mavjud. Tadbirkor ushbu yerning 5 gektariga “Pikkasso” navli kartoshka ekib, qolgan maydonlarda turli sabzavot ekinlarini yetishtiradi. Bundan tashqari, uning issiqxonasi ham bo‘lib, unda limon parvarish qilinadi. Hozirgi kunda xo‘jalikda 5 nafar ishchi doimiy ish bilan ta’minlangan bo‘lsa, mavsum paytida 30–40 nafargacha aholi vaqtinchalik ish bilan band qilinadi. Yetishtirilgan kartoshka asosan Toshkent shahar bozorlariga yetkazib berilmoqda. Kelgusida esa tadbirkor mahsulotni xorijiy bozorlarga ham chiqarish hamda o‘zining shaxsiy brendini yaratishni maqsad qilgan. Uning aytishicha, hosilning mo‘l bo‘lishi va mahsulot sifatining yuqoriligi mahallaning toza iqlimi, doimiy shamol esib turishi, atrofda sanoat korxonalarining yo‘qligi hamda toza suv manbalarining mavjudligi bilan bog‘liq.

Mahallada chorvachilik yo‘nalishida ham yangi tashabbuslar paydo bo‘lmoqda. Tadbirkor Abdumo‘min Turg‘unboyev chorvachilik faoliyatini yo‘lga qo‘yish niyatida Qirg‘izistonning Bishkek shahridan 80 bosh qoramol olib kelgan. U hozirda chorvachilik xo‘jaligi tashkil etish uchun yer ajratilishi masalasida tuman rahbariyatiga o‘z biznes g‘oyasini taqdim etgan. Tadbirkor biznes rejasini takomillashtirish jarayonida bo‘lib, avvalo mahalliy bozordagi sut va go‘sht mahsulotlari savdosini o‘rganmoqda. U raqobatchilar faoliyatini tahlil qilib, kelgusida o‘z brendi ostida sifatli sut va go‘sht mahsulotlari ishlab chiqarishni rejalashtirmoqda. Agar loyiha to‘liq amalga oshsa, kamida 20 ta doimiy ish o‘rni yaratiladi. Shuningdek, tadbirkor xo‘jalikni kengaytirib, qoramollar sonini sal kam 200 boshga yetkazishni ham maqsad qilgan.

Mahallada nafaqat an’anaviy dehqonchilik, balki yangi yo‘nalishlar ham yo‘lga qo‘yilmoqda. Xususan, so‘nggi paytlarda bog‘dorchilikka qiziqish ortib bormoqda. Bir necha xonadon egalari danaksiz “Akko” navli anor ko‘chatlarini ekishni boshladi. Bu nav Yevropa seleksiyasiga mansub bo‘lib, donalari juda mayin, deyarli bilinmaydigan darajada yumshoq bo‘ladi. Mevasi och qizil rangda, nihoyatda shirali va suvliligi bilan ajralib turadi. Eng muhim jihatlaridan biri — erta pishishi va tashqi ko‘rinishining jozibadorligi sababli eksport uchun ham juda mos hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, ushbu nav kelajakda mahallalarda bog‘dorchilikni rivojlantirishda muhim o‘rin tutishi mumkin.



Xulosa qilib aytganda, Saryuz mahallasi bugungi kunda mehnatkash va tashabbuskor insonlar yashaydigan maskan sifatida e’tirof etilmoqda. Aholining dehqonchilik, chorvachilik va tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi nafaqat oilalar farovonligini oshirmoqda, balki mahallada bandlikni ta’minlashga ham hissa qo‘shmoqda. Bu esa o‘z navbatida kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush darajasini yaxshilashga xizmat qiladi.

Lobar JUMABOYEVA

Huquqiy maslahat

MCHJ — TADBIRKORLIKNING MUHIM TASHKILIY SHAKLI

Bugungi kunda davlatimizda aksariyat yosh tadbirkorlar o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatini yuritishda mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklini qulay va ishonchli deb bilishmoqda. Xo‘sh, nima sababdan tadbirkorlar aynan ushbu tashkiliy-huquqiy shaklni afzal ko‘rishmoqda?

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning mulkiy asosi jamiyat ishtirokchilarining hissalaridan tashkil topgan ustav fondi (kapitali)dan iborat. Ustav kapitalining miqdoriga qo‘yilgan qat’iy talab mavjud emasligi mas’uliyati cheklangan jamiyatning boshqa xo‘jalik jamiyatlariga nisbatan ustun tomonlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli ustav kapitalining miqdori ishtirokchilar tomonidan ixtiyoriy ravishda ustavda belgilanadi.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning yuridik shaxs sifatidagi mohiyati va xo‘jalik jamiyatlari tizimida tutgan o‘rni, avvalo, biznesga kiritilgan mol-mulk muassis — jismoniy yoki yuridik shaxsning boshqa mol-mulkidan to‘liq ajratilganligi bilan izohlanadi. Jamiyat faoliyati aynan shu ajratilgan mol-mulk asosida olib boriladi, majburiyatlar ham shu mol-mulk doirasida bajariladi hamda javobgarlik ham ana shu “tikilgan mol-mulk” doirasida amal qiladi. Shu bois “mas’uliyati cheklanganlik” iborasi javobgarlik faqat qo‘shilgan hissa miqdori bilan chegaralanishini anglatadi.

Muxtasar qilib aytganda, mas’uliyati cheklangan jamiyat faoliyatining asosiy maqsadi foyda olishga qaratilgan tijorat tashkilotidir. Fuqarolik kodeksining 40-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxslar tashkil etilish va faoliyat yuritish maqsadiga qarab tijoratchi hamda tijoratchi bo‘lmagan tashkilotlarga bo‘linadi. Mas’uliyati cheklangan jamiyatda ishtirokchilarning kapitallari birlashtiriladi, biroq ayrim boshqa tadbirkorlik shakllaridan farqli ravishda ishtirokchilarning shaxsiy ishtiroki majburiy hisoblanmaydi. Bunday jamiyat bir yoki bir nechta jismoniy hamda yuridik shaxslar tomonidan tashkil etilishi mumkin. Agar qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, davlat hokimiyati va boshqaruv organlari jamiyat ishtirokchisi bo‘lishi mumkin emas. Shu bilan birga, jamiyat bir shaxs tomonidan ham tashkil etilishi mumkin va u jamiyatning yagona ishtirokchisiga aylanadi.

Xulosa o‘rnida aytish lozimki, mas’uliyati cheklangan jamiyat xo‘jalik jamiyatlarining bir turi bo‘lib, ishtirokchilari tomonidan kiritilgan mablag‘ va mol-mulk asosida shakllangan ustav fondiga ega bo‘lgan tijorat tashkilotidir. Uning ishtirokchilari jamiyat majburiyatlari uchun shaxsan javob bermaydi, balki o‘zlari qo‘shgan hissa qiymati doirasida javobgar bo‘ladi.

Shu jihatdan mas’uliyati cheklangan jamiyat biznes yuritish uchun alohida ajratilgan mol-mulkka asoslangan, ishtirokchilarning javobgarligini cheklaydigan va tadbirkorlik faoliyatini mustaqil yuritish imkonini beradigan muhim tashkiliy-huquqiy shakl hisoblanadi.

Xushnud KARIMOV,
Eldor QURBONOV,
Nurafshon tumanlararo iqtisodiy sudining sudyalari

G‘alla parvarishi



ZANG KASALLIGINING OLDINI OLISH

Bekobod tumani sharoitida g‘alla yetishtirishda uchrayotgan asosiy xavflardan biri — zang kasalligi hisoblanadi. Bahor oylarida ob-havoning nisbatan nam va iliq bo‘lishi, ayniqsa fevral–mart oylarida, sariq zang kasalligining tez tarqalishiga qulay sharoit yaratadi.

Zang kasalligi dastlab g‘alla barglarida sariq yoki jigarrang mayda dog‘lar ko‘rinishida paydo bo‘ladi. Kasallik kuchayganda barglar faoliyati susayib, don to‘lishi yomonlashadi va hosildorlik sezilarli darajada kamayadi.

Kasallikning asosiy sabablari — almashlab ekishga rioya qilinmasligi, kasallikka chidamsiz navlarning ekilishi hamda parvarish tadbirlarining kechiktirilishi bilan bog‘liq. Shu bois fermer xo‘jaliklariga dalalarni muntazam kuzatib borish va kasallikning dastlabki belgilari aniqlanganda darhol choralar ko‘rish tavsiya etiladi.

Zang kasalligining oldini olish maqsadida kasallikka chidamli navlardan foydalanish, mineral o‘g‘itlarni me’yorida qo‘llash hamda zaruratga ko‘ra tavsiya etilgan fungitsid preparatlar bilan ishlov berish muhim ahamiyatga ega.

Dastlabki prognozlash bo‘yicha yetakchi mutaxassis tomonidan zang kasalligining rivojlanishi to‘g‘risida bashorat xulosalari beriladi va Fitosanitariya nazorati davlat inspektorlari tomonidan Bekobod tumani hududida dala nazorati olib borilib, fermerlarga amaliy tavsiyalar taqdim etiladi.

O‘z vaqtida ko‘rilgan choralar g‘alla hosilini saqlab qolish va yuqori hosildorlikka erishishga xizmat qiladi.

Fotima ESANALIYEVA,
O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi Bekobod tumani bo‘limi prognoz qilish bo‘yicha yetakchi mutaxassis

Xabardormisiz!?



SUV SOLIQLARI VA SUBSIDIYA TIZIMI YANGILANADI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2026-yil 5-fevralda imzolangan PQ-47-son qarorga muvofiq agrar sektorda suv resurslaridan foydalanish bo‘yicha soliqlarni ikki barobar oshirish va suv tejovchi texnologiyalarga subsidiya olish qoidalari yangilandi.

2027-yildan boshlab suv bilan ta’minlangan zonalarga qarab soliq va subsidiya belgilanishi, shuningdek, majburiy “aqlli” o‘lchov asboblarini o‘rnatish talab qilinadi. Qarorda ayrim hollarda suv resurslaridan foydalanish solig‘i ikki barobar oshirilishi, suvni tejovchi texnologiyalarga subsidiya va kredit olishning yangi qoidalari joriy etilishi hamda ushbu sohada davlat nazorati kuchaytirilishi ko‘zda tutilgan. Jumladan, suv ta’minoti barqaror bo‘lmagan hududlarda suv tejovchi texnologiyalar joriy etilsa, subsidiya miqdori 1,25 barobar oshiriladi, suv bilan barqaror ta’minlangan zonalarda esa suv tejovchi texnologiyalar mavjud bo‘lmasa, suv soliqlari ikki barobar oshiriladi.

Har yili 1-aprelga qadar mutasaddi idoralar mahalliy hokimliklar bilan birgalikda suv ta’minoti barqaror va beqaror bo‘lgan zonalardagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiruvchilari ro‘yxatini shakllantiradi. So‘ng uni xalq deputatlari tuman kengashlari tasdiqlaydi.

2027-yildan boshlab “aqlli” suv o‘lchash va hisoblash vositalari sholipoyalardagi suv kirish qismida hamda baliqchilik xo‘jaliklarida suv kirish va chiqish nuqtalarida o‘rnatilishi majburiy bo‘ladi. Ushbu asboblar o‘rnatilmagan taqdirda suv resurslaridan foydalanish solig‘i ikki barobar qo‘llanadi. O‘lchash vositalari Suv xo‘jaligi vazirligining “Suv hisobi” axborot tizimiga integratsiya qilinadi. Baliqchilik obyektlari uchun suv limitlari faqat tegishli xulosa mavjud bo‘lganda ajratiladi.

2026-yil 1-oktyabrdan suv tejovchi texnologiyalar uchun nasos va filtr qurilmalari QR-kodli maxsus yorliq bilan ishlab chiqarilishi, sun’iy yo‘ldosh kuzatuv tizimi (GPS-tracker) o‘rnatilishi tartibi joriy etiladi. Bank kreditisiz o‘z mablag‘lari hisobidan texnologiyalarni joriy qilayotgan tadbirkorlarga subsidiya ajratishning yangi tartibi ham belgilandi. Unga ko‘ra, loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilib, ta’minotchi korxona bilan shartnoma tuzilganidan keyin subsidiya 50% oldindan ajratiladi, qolgan 50% texnologiyalar ishga tushirilgandan keyin to‘lanadi.

Subsidiyaning dastlabki qismi ajratilganidan keyin ikki oy ichida texnologiyalar o‘rnatilmasa, mablag‘lar belgilangan tartibda qaytariladi.

Farruh YUNUSOV,
Suvxo‘jaliknazorat inspeksiyasi,
Toshkent viloyati boshqarmasi,
bosh mutaxassisi

ORGANIK DEHQONCHILIK: TABIIY HOSIL VA SOG‘LOM HAYOT



Qishloq xo‘jaligi sir-asrorlari

So‘nggi yillarda butun dunyoda organik mahsulotlar va organik dehqonchilik atamalari keng ommalashmoqda. Organik qishloq xo‘jaligi deganda tabiiy usullar bilan, kimyoviy moddalar va mineral o‘g‘itlarsiz mahsulot yetishtirish tushuniladi. Hozirgi paytda aholi salomatligi ko‘rsatkichlarida me’yordan og‘ish kuzatilmoqda, bunda vitaminlar, minerallar va boshqa biologik faol moddalar yetishmasligi muhim omildir.

Organik dehqonchilikda yer resurslaridan samarali foydalanish, tuproq unumdorligini saqlash va oshirish muhim bo‘lib, har bir ekin turini tuproq va iqlim sharoitiga mos joylashtirish lozim. Bundan tashqari, tejamkor texnologiyalar bilan yerga ishlov berish, organik o‘g‘itlar va sideratlar qo‘llash, tuproq sho‘rlanishi, zahlanishi, botqoqlanishi, eroziya va ifloslanishini oldini olish, begona o‘tlar, zararkunandalar va kasalliklarga qarshi biologik va agrotexnik choralarni qo‘llash, shuningdek iqlim sharoitiga mos, kasallik va zararkunandalarga chidamli mahalliy ekinlar va navlarni yetishtirish muhim hisoblanadi.

Siderat o‘g‘itlarning afzalliklari shundaki, tuproqdagi organik moddalar ko‘payadi, mikroorganizmlarning rivojlanishi uchun qulay muhit yaratiladi, ildiz tizimi mineral ozuqa moddalarini chuqur qatlamlarda saqlaydi, tuproqning mexanik, fizik va mikrobiologik xossalarini yaxshilaydi va namlikni saqlash orqali suvni tejashga yordam beradi.

Yurtimizda organik dehqonchilik nisbatan yangi, ammo istiqbolli yo‘nalish bo‘lib, rivojlangan davlatlarda organik mahsulotlar an’anaviy agrotexnologiya bilan yetishtirilgan mahsulotlarga nisbatan qimmatroq sotiladi, shu bois bu sohada faoliyat yuritadigan fermerlar daromadlarini sezilarli darajada oshirish imkoniga ega.

Maqolani organik dehqonchilik haqidagi qiziq ma’lumotlardan biri bilan yakunlaymiz, rivojlangan davlatlarda organik ekinlarni himoyalash uchun maxsus texnika vositalari mavjud. Masalan, begona o‘tlarni yoqib yuboruvchi yoki bosim ostidagi havo bilan ularni joyidan uchirib yuboruvchi mashinalardan faol foydalaniladi.

Fahriddin SHAKIROV,
Ulug‘bek MAMATQULOV,
Shohruh ESHBOYEV,
Farruh ASQAROV,
“Oybek” O‘KCHM inspektorlari

Tibbiy maslahat

24-MART BUTUNJAHON “SILGA QARSHI KURASH” KUNI!

Sil kasalligi butun jamiyat uchun muammo bo‘lib, shu sababli bu kasallik haqida ma’lumot har birimiz uchun muhimdir. 24-mart butunjahon “Silga qarshi kurash” kuni sifatida nishonlanadi. Sil yuqumli kasallik bo‘lib, uni Mycobacterium tuberculosis bakteriyalari keltirib chiqaradi. Kasallik tananing barcha a’zolarini zararlashi mumkin, ammo ko‘proq o‘pkaga ta’sir qiladi.

Sil kasalligi asosan yuqish yo‘li orqali tarqaladi – kasal shaxs gaplashganda, yo‘talganda yoki aksirganda bakteriyalar havoga tushadi va uzoq vaqt saqlanadi, ayniqsa, kam shamollatilgan, yopiq xonalarda. Kasallik xavfi immuniteti past bo‘lgan insonlarda yuqori bo‘ladi. Sil nasldan-naslga o‘tmaydi, faqat bevosita kontakt orqali yuqadi. Kasallikka olib keluvchi omillar bu surunkali kasalliklar, ichkilikbozlik, giyohvandlik, qandli diabetdir, shuningdek, tez-tez kasallangan insonlarning immuniteti pasayganda kasallikni yuqtirish ehtimoli yuqori bo‘ladi.

Silning belgilari quyidagilardir: ikki haftadan ortiq davom etuvchi yo‘tal, balg‘am ajratish, biroz isitma ko‘tarilishi, tungi terlash, charchoq va holsizlik, ishtaha susayishi, vazn yo‘qotish, ko‘krak qafasida og‘riq va qon tuflash. Ushbu belgilardan biri kuzatilsa, yashash joyi, o‘qish yoki ish joyidagi tibbiy muassasaga darhol murojaat qilish zarur. Silning davosi mavjud – shifokorga qancha tez murojaat qilinsa va davolash kursi to‘liq o‘tilsa, bemor to‘liq sog‘ayadi. Agar vaqtida murojaat qilinmasa yoki davolash kursi to‘liq amalga oshirilmasa, kasallik jiddiy oqibatlarga, hatto o‘limga olib kelishi mumkin. Silni aniqlash va davolash xizmatlari bepul taqdim etiladi.

Silning oldini olish uchun quyidagilarga rioya qilish kerak: kasallik belgilaridan birortasi paydo bo‘lsa darhol shifokorga murojaat qilish, atrofdagi insonlarda sil belgilari mavjud bo‘lsa, ularni shifokorga murojaat qilishga ishontirish, xonalarni muntazam shamollatish va sog‘lom turmush tarzini olib borish – to‘g‘ri ovqatlanish, doimiy jismoniy mashqlar bajarish va ichkilik, giyohvandlik, chekish kabi zararli odatlardan uzoq turish. Xavfli guruhlar – tez-tez kasallangan bemorlar, qandli diabet bilan og‘riganlar va migrantlar – har yili flyuorografiya tekshiruvidan o‘tishi va tahlillar topshirishi, zarur bo‘lsa ftiziatr qabulida bo‘lishi lozim.

Sil yosh tanlamaydi, 0 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarda ham uchraydi. Tez-tez kasallanuvchi, immuniteti past bolalar, migrant bolalar va boshqa kasallik belgilariga ega bolalar ftiziatr ko‘rigidan o‘tkazilishi kerak. Bunday bolalarga Manchu tuberkulin sinovlari, “Diaskin-test” tahlillari va yil davomida flyuorografiya tekshiruvi amalga oshiriladi.

Nasiba QO‘LDOSHOVA,
Bekobod tuman Ko‘p tarmoqli markaziy poliklinikasi Fizioterapiya va pulmonologiya bo‘limi fiziopulmonologi

PEDAGOG MINBARI

YOSH IQTIDORLAR SAHNADA



Bekobod tumani “Kelajak” markazi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi hamkorligida “Turon” maktab teatri tanlovining tuman bosqichi o‘tkazildi.

Tanlovning asosiy maqsadi o‘quvchilarda notiqlik san’ati va sahna madaniyatini shakllantirish, ta’lim muassasalaridagi teatr studiyalari faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning ijodiy va intellektual qobiliyatini rivojlantirish hamda yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan iborat. Shuningdek, madaniyat va san’at sohasiga qiziqqan yoshlarning salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun inklyuziv ijodiy ta’lim muhitini yaratish ham ko‘zda tutilgan.

Tanlovning maktablar o‘rtasida o‘tkazilgan hududiy bosqichida 1-umumta’lim maktabining “Turon zamin farzandlari”, 6-umumta’lim maktabining “Ibratona”, 55-umumta’lim maktabining “Turon yulduzlari” hamda 46-umumta’lim maktabining “Nihol” jamoalari ishtirok etib, o‘z iqtidorlarini namoyish etdilar.

“Bizning maktab” sharti doirasida jamoalar o‘zlari tahsil olayotgan ta’lim muassasasining yutuqlarini badiiy, musiqiy hamda sahna ko‘rinishlari orqali tanishtirdilar.

“Teatr – ibratxona” sahna spektakli shartida esa ishtirokchilar milliy va umuminsoniy qadriyatlar, urf-odat va an’analarimizga zid bo‘lmagan, tarbiyaviy ahamiyatga ega asarlar asosida sahna ko‘rinishlarini namoyish etdilar.

Hakamlar hay’ati jamoalarning chiqishlarini quyidagicha baholadi:

1-o‘rin — “Turon zamin farzandlari” jamoasiga;

2-o‘rin — “Nihol” jamoasiga;

3-o‘rin — “Ibratona” jamoasiga nasib etdi.

55-umumta’lim maktabining “Turon yulduzlari” jamoasi esa faol ishtiroki uchun faxriy yorliq bilan taqdirlandi.

Tanlov g‘oliblari Bekobod tuman “Kelajak” markazi hamda Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tomonidan diplom va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandi.

Nazira KARIMOVA,
“Kelajak” markazi
bosh mutaxassisi



KITOBXONLIK BELLASHUVI

Bekobod tumani 12-umumta’lim maktabining 6–7-sinf o‘quvchilari o‘rtasida “Yosh kitobxon” ko‘rik-tanlovi yuqori saviyada tashkil etildi. Tanlovning asosiy maqsadi o‘quvchilarda kitobga bo‘lgan mehrni oshirish, dunyoqarashini kengaytirish va mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirishdan iborat.

Bellashuv jarayonida o‘quvchilarning nutq madaniyati, tezkor fikrlashi va asarni chuqur anglashi yaqqol namoyon bo‘ldi. Har bir ishtirokchi o‘z bilim va salohiyatini namoyish etishga intildi. Tanlov yakunida eng faol va bilimdon o‘quvchilar faxriy yorliq va esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar.

“Yosh kitobxon” nafaqat bellashuv, balki haqiqiy ma’naviyat bayramiga aylandi. Zero, kitob – insonni komillikka yetaklovchi eng yaqin do‘stdir. Bunday tadbirlar yosh avlodni bilimli, tafakkuri teran va ma’naviy yetuk inson bo‘lib voyaga yetishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Yulduz AMANOVA,
Bekobod tumani
12-umumta’lim maktabi
kutubxona mudirasi,
Mahfuza PARPIYEVA,
ona-tili va adabiyot fani
o‘qituvchisi

Sport tadbiri

HAR QADAM – SALOMATLIK

Bekobod tumanida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish maqsadida “5000 qadam” shiori ostida ommaviy yurish va badantarbiya tadbiri tashkil etildi. Tadbirda tuman tashkilotlari xodimlari, yoshlar, sportsevar fuqarolar hamda keng jamoatchilik vakillari faol ishtirok etdilar.



Mazkur yurishning asosiy maqsadi aholi o‘rtasida sog‘lom turmush tarzini shakllantirish, jismoniy faollikni oshirish hamda sport bilan muntazam shug‘ullanishga targ‘ib qilishdan iborat bo‘ldi. Ishtirokchilar belgilangan yo‘nalish bo‘ylab birgalikda 5000 qadam yurib, tonggi badantarbiya mashqlari orqali sog‘lom hayot tarzi va jamoaviy sportning ahamiyatini namoyish etdilar.

Tadbir davomida qatnashchilar ko‘tarinki kayfiyatda yurish qilib, sog‘lom turmush tarzining inson salomatligi uchun qanchalik muhim ekanligi haqida fikr almashdilar. Bunday ommaviy sport tadbirlari aholining salomatligini mustahkamlash, yoshlarni sportga jalb qilish va jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishga xizmat qiladi.

Jahongir SULTONOV,
Bekobod tumani
Sport maktabi
yo‘riqchi-uslubchisi

Ta’lim va tarbiya

TO‘G‘RI YO‘L – YORQIN KELAJAK



Yoshlarni umuminsoniy va milliy qadriyatlar, yuksak insoniy fazilatlar ruhida tarbiyalash, ularning ongini turli mafkuraviy, ma’naviy va axborot tahdidlaridan ishonchli himoya qilish, shuningdek, ularda g‘oyaviy immunitet va faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir.

Yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga solish uchun, avvalo, mustaqillik davrigacha bo‘lgan qiyinchiliklarni ularga yetkazish, ibratli oila va jamiyat namunalarini ko‘rsatish, muvaffaqiyatga erishgan kasb egalari bilan uchrashuvlar o‘tkazish muhimdir. Shu bilan birga, maktablarda “Ustoz-shogird” an’anasini joriy etish, o‘g‘il bolalar uchun “Yigit kishiga qirq hunar oz”, qiz bolalar uchun esa “Tanlagan kasbim – kelajakdagi baxtim” shiori ostida targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish tavsiya etiladi.

Yoshlar ongiga hayotda o‘z o‘rnini topish uchun, albatta, kasb-hunar egallash zarurligini chuqur singdirish, oila, mahalla va maktab hamkorligini kuchaytirish bilan amalga oshiriladi.

Mahallalarda faoliyat yuritayotgan ishlab chiqarish korxonalari, tashkilotlar, uy sharoitida shug‘ullanuvchi usta-hunarmandlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar bilan shogirdlik va hamkorlikni yo‘lga qo‘yish ishlarini kengaytirish lozim.

Shu bilan birga, yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Sport to‘garaklari, ijodiy mashg‘ulotlar, kitobxonlik kechalari hamda turli ma’naviy-ma’rifiy tadbirlar yoshlarning dunyoqarashini kengaytirib, ularda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishga xizmat qiladi.

Bugungi globallashuv davrida yoshlarning ongini turli yot g‘oya va zararli axborotlardan himoya qilish masalasi ham dolzarbdir. Shu bois ularda mustaqil fikrlash, voqea-hodisalarga tanqidiy yondashish hamda milliy qadriyatlarga hurmat tuyg‘usini shakllantirish zarur. Bu borada oila, mahalla va ta’lim muassasalarining hamkorligi muhim o‘rin tutadi. Birgalikdagi sa’y-harakatlar orqali yosh avlod qalbida Vatanga muhabbat, xalqiga sadoqat va kelajak oldidagi mas’uliyat tuyg‘ulari yanada mustahkamlanadi.

Xulosa qilib aytganda, yoshlarni barkamol, bilimli va kasb-hunarli qilib tarbiyalash har birimizning muqaddas burchimizdir. Ana shunda jamiyatimizda faol fuqarolik pozitsiyasiga ega, yurt ravnaqi uchun sidqidildan xizmat qiladigan, mustaqil fikrlaydigan yoshlar safi tobora kengayib boradi.

Rahima BOYTEMIROVA,
Bekobod tumani
46-umumta’lim maktabi
ma’naviy-ma’rifiy ishlar
bo‘yicha direktor o‘rinbosari

Ma’rifat fidoyisi

Umr oqar daryoga qiyos. Daryo bog‘-rog‘larga hayot baxsh etishi bilan qadrlansa, inson umri ham el-yurtiga xizmat qilish bilan ulug‘lanadi.



HAYOTNING HAR LAHZASI BIR TARIX

Ana shunday el-yurt xizmatidan charchamagan insonlardan biri – tumanimiz faxriysi Qosim ota Yoqubovdir. U kishi “O‘lka tarixi”, “Temuriylar tarixi”, “11-maktab tarixi” hamda “Dalvarzin tarixi” muzeylarini tashkil etgan.

Qosim ota Yoqubov 1945-yil 10-sentyabrda Toshkent viloyati Bekobod tumanida tavallud topgan. Mehnat faoliyatini 1963-yilda Bekobod tumanidagi 11-umumta’lim maktabida boshlagan. 1967-yili Samarqand davlat universitetining tarix fakultetiga o‘qishga kirib, 1972-yilda muvaffaqiyatli tamomlagach, yana o‘zining 11-maktabida faoliyatini davom ettirgan.

Talabalik davridayoq ilmiy izlanishlar olib borgan Qosim ota qadimgi Dalvarzin hamda Oybek, Ulug‘bek nomidagi shirkat xo‘jaliklari tarixiga oid qator kitoblar va 100 ga yaqin ilmiy maqolalar yozgan.

U kishining sa’y-harakatlari zoye ketmadi. 2007-yil 8-dekabr kuni o‘z xonadonlarida tashkil etgan “Dalvarzin tarixi” muzeyining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Bu kun haqiqiy bayramga aylandi, deydi Qosim ota Yoqubov.

2009-yilda esa yana Qosim otaning xonadonida “Temuriylar tarixi” muzeyi tashkil etildi. Keyinchalik yetarlicha eksponatlar to‘plangach, tuman bolalar ijodiyot uyi qoshida “O‘lkashunoslik tarixi muzeyi” ham ochildi. Bu muzeylarga tumanimiz ijodkorlari, tashkilot vakillari, maktab o‘quvchilari va talabalar tez-tez tashrif buyurib, o‘lkamiz tarixining qiziqarli sahifalari bilan tanishmoqdalar.

Qosim ota Yoqubov 2009-yilda “Fidokorona xizmatlari uchun” ordeni bilan taqdirlangan. Shuningdek, “Oliy toifali o‘qituvchi”, “Xalq ta’limi a’lochisi”, “Mehnat faxriysi” unvonlariga sazovor bo‘lgan. 2021-yilda Mustaqilligimizning 30 yilligi ko‘krak nishoni bilan ham taqdirlangan.

— “Muzey – ma’naviyat va ma’rifat o‘chog‘i, buyuk Vatanga munosib farzandlarni tarbiyalash markazi”, — deydi Qosim ota.

Qahramonimiz 55 yil davomida o‘qituvchilik qilib, ko‘plab o‘g‘il-qizlarga ta’lim-tarbiya berdi. To‘rtta muzey tashkil etib, ularni bugungi kungacha yangi topilmalar bilan boyitib kelmoqda. Ilmiy-ommabop maqolalari respublika gazeta va jurnallarida chop etilgan. “Hayotning har lahzasi bir tarix”, “Mehrnoma”, “Shukrona” kabi kitoblar muallifidir. O‘zbekiston ensiklopediyasiga ham u kishining nomi va bir nechta maqolalari kiritilgan.

Bugungi kunda Qosim ota turmush o‘rtoqlari Mukarramxon aya bilan birga farzandlari va nabiralari ardog‘ida hayot kechirmoqdalar.

Matluba NAVRUZBOYEVA,
Bekobod tuman
Axborot-kutubxona markazi
Axborot-bibliografiya
xizmati rahbari

Xotira

E’TIQOD


Yoshim oltmish to‘qqizda. Hayotimning yarmi sovet davriga, yarmi esa undan keyingi davrga to‘g‘ri keldi. Mening tengqurlarim o‘sha davrni eslab: “Ajab zamonlarni ko‘rdik-da”, deb qo‘yishadi. Sizlarga ana o‘sha “ajab zamonlar” haqida so‘zlab bermoqchiman.

Ramazon oyi hijriy-qamariy yil hisobining to‘qqizinchi oyidir. Bu oy tugab, shavvol oyining birinchi kunida Ramazon hayiti nishonlanadi. Zulhijja oyining o‘ninchi kunida esa Qurbon hayiti bayram qilinadi. Bugun bu ikki bayramni har yili keng nishonlayapmiz. Shu munosabat bilan yaqin tarixga bir nazar tashlaylik. Ateizm kuchaygan sovet davrida hayit bayramlari nishonlanganmi? Buni yaxshi eslaymiz: rasmiy jihatdan bayram qilinmas edi. Ikkala hayit bayrami ham norasmiy ravishda o‘tkazilardi.

Sizlarga hayit bayrami bilan bog‘liq bir voqeani aytib bermoqchiman. Bu voqea o‘tgan asrning yetmishinchi yillari o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan.

Paxta terimi ayni qizg‘in pallaga kirgan payt. Hayit bayrami ham shu kunlarning biriga to‘g‘ri kelgan. Rayon partiya komitetining ikkinchi sekretari boshchiligidagi komissiya o‘sha kuni terim qanday borayotganini tekshirish uchun reydga chiqadi. (Izoh: raykomning ikkinchi sekretari o‘zbek millatiga mansub bo‘lmagan. O‘sha davrda deyarli barcha rayonlarda shunday edi. Bu o‘sha davrning yozilmagan qonunlaridan biri hisoblanardi.)

Brigadalardagi terim sur’ati bilan tanishib, ko‘plab brigada boshliqlariga tanbeh berib, nihoyat o‘sha davrdagi toponimik atama bo‘yicha “Pobeda” kolxozining 1-uchastkasiga yetib kelishadi. Bir brigadaning ish faoliyati bilan tanishib, keyingi brigadaga o‘tishadi. Brigadirdan bugun qancha odam paxta terishi kerakligi haqida so‘raydi. Tabiiyki, terimga kam odam chiqqan edi. Raykom sekretari brigadirga ancha dashnom so‘zlar aytadi. Brigadir avvaliga indamay eshitib turadi. Nihoyat, “portlaydi”. Rus tilini yaxshi bilgani uchun shunday deydi: “Теперь вы меня послушайте, товарищ секретарь райкома. В Союзе есть официальные праздники: это 1-й май, 9-й май, 7-й ноябрь и ещё какие-то. Сегодня у нас Хайит. Это религиозный праздник. Пусть народ празднует этот праздник.” Brigadir yana ancha gaplarni ham aytib tashlagan. Qisqacha mazmuni shunday edi. Raykom sekretari uning gaplarini eshitib, hang-mang bo‘lib qoladi va indamay dalani tark etadi. Ular ketishgach, brigadir yonidagi ishchilar: “Bu gaplaringiz uchun sizni tinch qo‘yishmaydi. Buning ustiga siz KPSS — Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi a’zosisiz”, deydi. Brigadir esa: “Boshga tushganini ko‘z ko‘rar”, deb javob beradi.



Raykom sekretari insofi bor odam ekan. Biron joyda bu haqda og‘iz ochmagan. Ehtimol, iymonini yo‘qotmagan xalqqa qoyil qolgandir. Xalq e’tiqodiga tan bergan bo‘lsa, ne ajab. Keyinchalik ham brigadir bilan do‘stona tarzda gaplashib yuravergan. Mard kishiga u ham mardlik bilan javob qilgan.

Yana bir voqea esimga tushdi. Bu voqea o‘tgan asrning saksoninchi yillari o‘rtalarida bo‘lib o‘tgan.

O‘sha paytda maktabda o‘qituvchi bo‘lib ishlardim. Bir kuni odatdagidek darsga kirdim. Adashmasam, sakkizinchi yoki to‘qqizinchi sinf edi. Mavzu davomida ateizm haqida ham gapirib o‘tish kerak edi. Shu haqda gapira boshladim. Bir oz gapirganimdan so‘ng bir o‘quvchi qo‘l ko‘tardi-da: “Ustoz, sizga bir gap aytsam maylimi?” dedi. “Ayta qol”, dedim. U esa: “Siz Yaratgan borligiga ishonasiz”, dedi.

Hayron bo‘lib qoldim. “Nega unday deyapsan?” deb so‘radim. U: “Ko‘zlaringiz aytib turibdi”, deb javob berdi.

Rostini aytganda, o‘quvchi haq gapni aytgan edi. Uyda otam ham, onam ham namozni kanda qilmas edilar. Ro‘za tutishardi. Biz maktabda davr talabi ruhida ta’lim olsak-da, uyimizdagi muhitni ko‘rib, qalbimizda boshqacha bir tuyg‘u hukmron bo‘lgan. Bunday tuyg‘u boshqalarda ham bo‘lgan, shubhasiz. Bu tuyg‘u e’tiqoddir.

Said BOLTAYEV,
“Nayman” MFY faoli

Mahallada tanlov

IQTIDOR EGALARINING ONALARI TAQDIRLANDI

Davlatimiz rahbarining 2026-yil 24-fevraldagi yoshlar bilan bo‘lgan uchrashuvida yoshlarning tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlashga doir qo‘shimcha imkoniyatlar belgilandi.

Mazkur imkoniyatlardan oqilona foydalanish, mahalla o‘quvchi yoshlarining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, san’at sohasiga bo‘lgan qiziqishini oshirish, iste’dodlarini namoyon etishlariga ko‘maklashish hamda yangi iqtidor egalarini aniqlash maqsadida Bekobod tumani Ziyoli mahallasi yoshlar yetakchisi, mahalla bosh sardori Elbek Abduhalilov hamda yo‘nalish sardorlari tashabbusi bilan 7–18 yoshdagi o‘quvchilar o‘rtasida “Iqtidoringni kashf et” nomli ko‘rik-tanlov tashkil etildi.




Tanlov to‘rt yo‘nalish bo‘yicha o‘tkazildi: ashula, raqs, she’riyat va rassomchilik. O‘quvchilarning sahnada o‘zini tutishi, ohanglarni tinglab raqs ijro etishi, yod olgan she’rlarini mazmunli va ifodali o‘qishi, chizgan rasmlaridagi rang uyg‘unligi va mavzuga mosligi hakamlar tomonidan baholandi.

Natijada 25 nafardan ortiq o‘quvchi o‘z iqtidorini namoyish etdi, tadbir so‘nggida g‘oliblar munosib taqdirlandi hamda barcha ishtirokchilar onalariga tashakkurnomalar topshirildi.

Dilorom PIRNAZAROVA,
Bekobod tumani Ziyoli MFY
yoshlar yetakchisi

TAHSIN POSHO - “SULTONNING SIRDOSHI” KITOBI HAQIDA



Mutolaa

Usmonli imperiyasining so‘nggi kuchli hukmdori hisoblangan Sulton Abdulhamidshundaydeydi:Menhukmronlik qilgan davrimda imperiyani saqlab qoldim. Mendan keyin ular uni bir yil ham saqlay olmadilar.”

Bu Sultonning shaxsi va siyosiy faoliyati tarixshunoslikda doimo bahsli mavzulardan biri bo‘lib kelgan. Uning shaxsiy hayoti, siyosiy qarashlari va saroydagi muhitni eng yaqinidan yoritgan, eng ishonchli manbalardan biri Sulton Abdulhamidning bosh kotibi Tahsin Posho tomonidan yozilgan mana bu kitobdir.

Avvalo, bu kitob muallifi Tahsin Posho haqida ikki og‘iz aytib o‘tsam. U sulton Abdulhamid hukumronligi davrida 14 yildan ortiq eng yuqori lavozimlarni egallab kelgan va har doim sultonning yonida bo‘lgan. Shu sababli ko‘plab voqealarga, dialoglarga shaxsan guvoh bo‘lgani uchun uning bu kitobi Sulton Abdulhamidning hukromlik davrini ochib beradigan eng ishonchli manbalardan biri deb ko‘riladi.

Kitobdagi xotiralar sultonning siyosiy donoligi, ehtiyotkor boshqaruv uslubi hamda insoniy fazilatlarini ichkaridan yoritadi. Tahsin Posho o‘z asarida nafaqat sultonning siyosiy qarorlarini, balki saroy hayotining ruhiy va ijtimoiy jihatlarini ham tasvirlab, hokimiyat va sadoqat o‘rtasidagi murakkab bog‘liqlikka e’tibor qaratadi.

Mazkur asar subyektiv bo‘lishiga qaramay, Usmonli davlatchiligi va Panislomizm siyosatini anglashda noyob tarixiy manba sifatida qadrlanadi. Shu bois, “Sulton Abdulhamidning sirdoshi” nafaqat bir sultonning xotirasi, balki imperiyaning tugab bitayotgan davrini aks ettiruvchi muhim hujjat hamdir.

Tahsin Posho o‘z xotiralarida Sulton Abdulhamidni avvalo siyosiy zukkolik va uzoqni ko‘ra bilish fazilatiga ega hukmdor sifatida tasvirlaydi. U sultonning har bir qarorini “tasodifiy emas, balki chuqur o‘ylangan reja” sifatida ta’riflaydi.

Tahsin Poshoning kitobda yozishicha, Sulton “har bir yangilikni sinchkovlik bilan kuzatib, avval xalq ruhiyatini, so‘ng amaldorlarining fikrini o‘rgangan”. Bu ehtiyotkorlik, ayniqsa, Yevropa davlatlari bilan diplomatik munosabatlarda yaqqol ko‘rinadi. Masalan, muallif sultonning “bir vaqtning o‘zida barcha yirik davlatlar bilan dushmanlashmaslik siyosati”ni uning eng katta muvaffaqiyatlaridan biri sifatida qayd etadi.

Tahsin Posho Sulton Abdulhamidning “davlatni saqlash instinktini” qo‘rqoqlik deya ayblash kerak emasligini ta’kidlaydi. Unga ko‘ra, sulton Usmonli imperiyasining zaiflashib qolganini yaxshi anglagan holda ochiq janglardan qochgan va diplomatiyani afzal ko‘rgan.

Shu bilan birga, asarda sultonning ichki xavotiri, qo‘rquvlari, tez-tez vahimaga tushib qolishi, buning oqibatida nihoyatda ehtiyitkorlik sababli ba’zi qarorlarda katta xatolarga yo‘l qo‘ygani ham ochiq tan olinadi.

Boshqa tomondan esa ana shu haddan ortiq ehtiyotkorlik sababli yangicha razvedka tizimi ishlab chiqilgani, imperiyaning har bir hududi bilan kodli ma’lumot almashinuvi, chet davlatlari harakatidan, har qadamidan xabardor bo‘lib turishdek muhim yutuqqa erishilgani ham e’tirof etiladi.

Tahsin Posho o‘z xotiralarida Sulton Abdulhamid yashagan Yulduz saroyini nafaqat siyosiy markaz, balki butun bir maxfiy boshqaruv tizimi sifatida tasvirlaydi. Unga ko‘ra, Abdulhamid 2 saroyni “davlat yuragi va ko‘zi”ga aylantirgan.

Asarda Sultonning kundalik hayoti ham batafsil tasvirlanadi. U erta tongda ish boshlagan, har bir hisobotni shaxsan o‘qib chiqqan, eng kichik voqealar haqida ham ma’lumot yig‘dirgan. Tahsin Posho bu tartibni “intizom va tartibning eng oliy ko‘rinishi” deb ataydi. Shu bilan birga, muallif saroydagi yakkalik muhitini ham yashirmaydi. Sulton Abdulhamid ko‘p hollarda hech kimga to‘liq ishonmagan, hatto yaqin amaldorlari bilan ham masofali munosabatda bo‘lgan.

Menga kitobning yoqqan tomoni va tarixchilarning nihoyatda qadrlaydigan jihati shundaki Tahsin Posho o‘z sultonini ideallashtirmaydi, balki uni barcha zaifliklari bilan inson sifatida ochib beradi.

Asarning tarixiy qiymati ham aynan mana shu ichki halollikda namoyon bo‘ladi: Tahsin Posho Sulton Abdulhamidni himoya qiladi, ammo uning xatolarini tanqid qilishdan ham cho‘chimaydi. Shu tariqa, “Sulton Abdulhamidning sirdoshi” o‘quvchiga sadoqat va haqiqat o‘rtasidagi murakkab muvozanatni his etish imkonini beradi. Bu esa xotira janridagi kitoblarning eng yaxshi o‘lchov mezonidir.

Tahsin Posho o‘z xotiralarida Abdulhamid II ni nafaqat siyosiy rahbar, balki Islom dunyosining ma’naviy homiysi sifatida ko‘rsatadi. Sultonning siyosati diniy e’tiqod bilan chambarchas bog‘langan bo‘lib, bu yondashuv asarda “Panislomizm” g‘oyasi sifatida yoritiladi. Tahsin Posho ta’kidlaydiki, Sulton “musulmonlarni yagona maqsad yo‘lida birlashtirish, ularning ruhiy birdamligini saqlash orqali imperiyani mustahkamlashni” o‘z oldiga maqsad qilgan edi.

Muallif sultonning bu siyosatini diniy targ‘ibot emas, balki davlatni birlashtiruvchi strategik vosita sifatida talqin qiladi. Masalan, u Hijoz temir yo‘li loyihasini eslab, uni “e’tiqod bilan siyosat qo‘shilgan eng go‘zal misol” deb ataydi. Bu yo‘l orqali Sulton Abdulhamid musulmon dunyosini Makka va Madina atrofida birlashtirishni istagan. “Sulton uchun Qur’on siyosatning asosiy qonuni edi; u dinni siyosatga bo‘ysundirmas, siyosatni din bilan uyg‘unlashtirar edi.” deb yozadi Tahsin Posho.

Biroq muallif bu g‘oyaning ba’zi cheklovlarini ham tan oladi — Yevropa davlatlari Panislomizmni tahdid deb bilgan, va bu Sulton Abdulhamidni xalqaro sahnada yanada ehtiyotkor harakat qilishga majbur etgan. Shunday qilib, Tahsin Posho uchun Sulton Abdulhamid diniy e’tiqodi va siyosiy donoligini uyg‘unlashtira olgan sulton, uning Panislomistik qarashlari esa imperiyaning so‘nggi birlashuv umidini ifodalaydi.

Tahsin Posho o‘z asarining so‘nggi boblarida Abdulhamid II davrining eng og‘riqli sahifalaridan biri 1909-yilgi taxtdan tushirilish voqeasiga to‘xtaladi. Muallif bu jarayonni faqat siyosiy hodisa sifatida emas, balki bir davrning ma’naviy inqirozi sifatida talqin qiladi. Unga ko‘ra, Sulton Abdulhamidning eng katta xatosi “hamma narsani nazorat qilish istagi” bo‘lgan, natijada sulton o‘z atrofidagi ishonchli kishilardan ham uzoqlashgan. “Sulton xalq uchun xavfsizlik devori bo‘lgan, lekin o‘sha devor uni xalqdan ajratib qo‘ygandi” deb yozadi Tahsin Posho.

Yana u sultonning xiyonat qurboni bo‘lgani, taxtdan tushirilgan paytda ham nigohlarida alam emas, taqdirini Allohga topshirgan musulmonning sokinligi balq urardi deb xotirlaydi.

Bundan tashqari, Tahsin Posho Sultonning islohot siyosatini ham yodga olib, u yaratgan ta’lim tizimi, infratuzilma va diplomatik muvozanatni uning eng katta merosi sifatida e’tirof etadi.

Tahsin Poshoning “Sulton Abdulhamidning sirdoshi” asari nafaqat bir sultonning hayoti, balki butun bir davrning ruhiy portretidir. Muallif Sulton Abdulhamidni tarixiy bahslar orasida emas, balki insoniy his-tuyg‘ulari, shijoati va shubhalari bilan jonli obrazda gavdalantiradi. Asarda siyosat va din, sadoqat va haqiqat, hokimiyat va yolg‘izlik o‘rtasidagi murakkab munosabatlar nozik kuzatuv bilan tahlil qilinadi.

Tahsin Posho sultonni na ideal, na mutlaq zolim sifatida tasvirlaydi — u Sulton Abdulhamidni o‘z davrining og‘ir sharoitida davlatni saqlab qolishga urinayotgan, ehtiyotkor, ammo vatanparvar hukmdor sifatida ko‘rsatadi. Shu bois bu asar o‘quvchiga tarixiy voqealarni siyosiy baholardan holi, ichki insoniy nuqtai nazardan ko‘rish imkonini beradi.

Bu kitobning o‘zbek tiliga tarjima qilinishi va nashr etilishi ham juda muhim voqelik. Chunki uni o‘qigan kitobxonda turkiy davlatchilikning dushmanlari kimlar yoki nimalar ekani, qaysi xatolardan imkon qadar uzoq yurish lozimligi bo‘yicha aniq tasavvurlar paydo qiladi. Bu uchun kitobni muvaffaqiyatli tarjima va nashr qilishda mehnat qilganlarga rahmat aytsak arziydi.

Muhiddin NIDO

MUSHOHADA

UCH ASAR TAASSUROTI

Kitob o‘qish insonni yangi fikrlar, tuyg‘ular va qarashlar bilan boyitadi. Ba’zi asarlar esa o‘quvchini nafaqat voqealar, balki inson ruhiyati va hayot falsafasi haqida chuqur mushohada qilishga undaydi.

Norveg yozuvchisi Knut Hamsunning “Edvarda” asari ana shunday asarlardan biridir. Kitobni mutolaa qilar ekansiz, go‘yo dunyoning bir chekkasida, katta o‘rmon bag‘ridagi sokin kulbada yashayotgandek his qilasiz. Asarda tabiat manzaralari va inson tuyg‘ulari juda chuqur va ta’sirli tarzda tasvirlangan. Syujeti keskin sarguzashtlarga boy bo‘lmasa-da, ruhiy kechinmalar va ichki his-tuyg‘ular tasviri o‘quvchini o‘ziga tortadi. Shu bilan birga, ayrim obrazlar kitobxonni o‘ylantirib, turli munosabat uyg‘otadi.

Rus adabiyotining buyuk namoyandasi Fyodor Dostoyevskiyning “Oydin tunlar” qissasi esa hajman kichik bo‘lishiga qaramay, nihoyatda samimiy va ta’sirchan asardir. Voqealar atigi to‘rt oydin kecha davomida yuz beradi. Muallif inson qalbidagi nozik his-tuyg‘ularni mahorat bilan tasvirlaydi. Asarda tasvirlangan kechinmalar o‘quvchini o‘z ichki dunyosiga nazar tashlashga undaydi. Nastinka obrazi esa o‘zining samimiyligi va tabiiyligi bilan yodda qoladi.



O‘zbek adabiyotining iste’dodli vakili Isajon Sultonning “Ma’suma” romani ham o‘quvchini chuqur mushohadaga chorlaydigan asarlardan biridir. Romanda Ma’suma ismli qahramon hayoti orqali xalqimiz tarixining sharafli va ayni paytda og‘riqli sahifalari yoritiladi. Asarda teatr san’ati va jadidlar faoliyatiga yangicha nigoh bilan qaraladi. Muallifning badiiy mahorati, voqealarni ta’sirchan tasvirlay olishi kitobxonni o‘ziga jalb etadi.

Shunday asarlar borki, ularni o‘qib bo‘lgach ham ta’siri uzoq vaqt qalbda qoladi. “Edvarda”, “Oydin tunlar” va “Ma’suma” ana shunday asarlar sira- siga kiradi. Ular turli davr va makon haqida hikoya qilsa-da, barchasini birlashtirib turadigan jihat — inson qalbi, uning orzu-armoni va kechinmalaridir.

Munisa AZAMOVA

YANGI BEKOBOD
Muassis: Bekobod tumani hokimligi

Bosh muharrir
Sarvinoz SHERALIYEVA

Manzilimiz:
"Zafar" shaharchasi, hokimiyat binosi, 3-qavat.
tel: (998) 55 902 59 94
elektron manzilimiz:
E-mail: yangibekobod@umail.uz

Toshkent viloyati Matbuot va axborot boshqarmasida 2011-yil 12-sentyabrda 03-023 raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr ko'rsatkichi 7013.
Gazeta tahririyat kompyuter bazasida terilib, sahifalandi. Buyurtma №
Adadi 1825 nusxa. "NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Korxona manzili: Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani,"Oq ota" Q.F.Y. Mash'al mahallasi, Markaz-1
Bosishga topshirish vaqti: 10:00.
Bosishga topshirildi: 11:00.

Sahifalovchi-dizayner
Shohida TO'RAQULOVA

ISSN 2091-5497